ORIENTAL UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
DAVLAT ADABIYOT MUZEYI

«ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSI – MO‘TABAR MADANIY MANBA»

mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI

II qism

Toshkent – 2024

UO‘K 821.512.161

Mas’ul muharrir:

Axmedov Murod – Oriental universiteti rektori
Eshonqulov Jabbor – O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori

Ma’sul muharrir o‘rinbosari:

Nasirova Malika – Oriental universiteti Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori

Tahrir hay’ati:

Jo‘raboyev Otabek – Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori o‘rinbosari
Meliboyev Mirkomil – Oriental universiteti Filologiya fakulteti dekani
Xasanova Shafoat – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi professori v.b.
Rahmatova Gavhar – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi mudiri, dotsent
Axmedova Nargiza – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi dotsenti
Tuychiyeva Oydin – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi dotsenti
Azimbayeva Nargiza – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Begimqulova Shohsanam – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Nashrga tayyorlovchi:

Tadjiyeva Umida – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Sodiqov Qosimjon – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi professori
Rustamiy Salima – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi professori

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

Ushbu to‘plam Oriental universiteti Kengashining 2024-yil 31-yanvardagi __-sonli yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© Oriental universiteti, 2024

“Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi – mo‘tabar madaniy manba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2024. – 464 bet.

To‘plamda Oriental universitetida o‘tkazilgan “Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi – mo‘tabar madaniy manba” deb nomlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etgan taniqli olimlar, yosh tadqiqotchilarning ma’ruzalari jamlangan. Maqolalarda sharq tillari va adabiyotining nazariy masalalari, xorijiy tillar o‘qitish metodikasi, manbashunoslik kabi sohalarga oid dolzarb masalalar yoritilgan.

Материалы международной научно-практической конференции на тему “Наследие Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура – бесценный культурный ресурс”. – Ташкент: Университет Oriental, 2024. – 464 стр.

В сборник вошли лекции известных ученых и молодых исследователей, принимавших участие в международной научно-практической конференции “Наследие Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура – бесценный культурный ресурс”, проходившей в Университете Oriental. В статьях освещаются теоретические вопросы восточных языков и литературы, методика преподавания иностранных языков, а также актуальные вопросы, связанные с таким направлением, как источниковедение.

Materials of the international scientific and practical conference on the topic “The Heritage of Alisher Navoi and Zakhiriddin Muhammad Babur – a prestigious cultural resource”. – Tashkent: Oriental University, 2024. – 464 p.

The collection includes lectures by famous scientists and young researchers who took part in the international scientific and practical conference “The Heritage of Alisher Navoi and Zakhiriddin Muhammad Babur – a prestigious cultural resource”, held at the Oriental University. The articles cover theoretical issues of oriental languages and literature, methods of teaching foreign languages, as well as topical issues related to such an area as source study.

“Ali Şîr Nevaî ve Zahîreddîn Muhammed Bâbur’un mirası – saygın bir kültürel kaynak” konulu uluslararası bilimsel-uygulamali konferansın bildirisi. – Taşkent: Oriental Üniversitesi, 2024. – 464 sayfa.

“Ali Şîr Nevaî ve Zahîreddîn Muhammed Bâbur’un mirası – saygın bir kültürel kaynak” konulu uluslararası bilimsel-uygulamali konferansın bildirisi” adlı uluslararası bilimsel ve uygulamali konferansa katılan ünlü bilim adamlarının ve genç araştırmacıların tam metin bildiri kitabı içeriyor. Makalelerde Doğu dilleri ve edebiyatının teorik konuları, yabancı dil öğretim metodolojisi, menba (kaynak) çalışmaları gibi alanlarla ilgili güncel konular yer almaktadır.

البحوث المشاركة في المؤتمر العلمي التطبيقي الدولي تحت عنوان «تراث علي شير ناوائي وظهير الدين محمد بابر – مراجع ثقافية ذات أهمية بالغة». – طشقند: جامعة أورينتال، 2024م. – 464 صفحة.

تحتوي المجموعة على المحاضرات و الدراسات لمشاهير العلماء والباحثين الذين شاركوا في المؤتمر العلمي التطبيقي الدولي تحت عنوان «تراث علي شير ناوائي وظهير الدين محمد بابر – مراجع ثقافية ذات أهمية بالغة» الذي تم عقده في جامعة أورينتال. فهذه الدراسات تلقي الضوء على مجالات عديدة مثل المسائل النظرية للغات الشرقية وآدابها، ومنهجية تدريس اللغات الأجنبية، كما يتضمن القضايا المعاصرة ودراسات المصادر.

1-SHO‘BA. ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING SHARQ ADABIYOTI VA MADANIYATI TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Muqaddas OQMAMATOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallarida qo‘llangan frazeologik birliklarning o‘ziga xos komponentlik jihatlari va ularning badiiy ifoda o‘rni, shuningdek, mazkur tillar birliklarining ingliz tiliga tarjimasi borasidagi fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, milliy-madaniy, komponentlik, lisoniy, ekvivalentlik, sinonimik, konkurensiya, aruz, qofiya, hijo, radif.*

Mumtoz adabiyot namunalarining tarjimasida, albatta, arxaik so‘zlarning semantik jihatlarini ham inobatga olish kerak.

Ona tilining inson hayotidagi o‘rni beqiyos. “Til juda katta ma’rifiy ahamiyatga ega. Mavjudotning mohiyatini, haqiqatini bilish “ma’rifat” deyiladi. Tilning ilmiy ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma’rifatni, ya’ni bilishning eng oddiy martabasini ham o‘z ichiga oladi. [A.Rustamov. So‘z xususida so‘z, T:1987, B:7]

Darhaqiqat, ona tilining lisoniy imkoniyatlari shu millatning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, madaniyati va ma’rifati bilan hamohang.

Binobarin, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “*Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir*” [Abadiyat gulshani. T:2013, B:3]

Ayniqsa, milliy-madaniy frazeologik birliklarda ushbu jihat yanada yaqqol seziladi. Shu bois mumtoz adabiyot namoyondalaridan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hamda dilbar shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi misolida frazeologik birliklar komponentligini baholi qudrat tahlil qilishga harakat qilamiz.

Xo‘sh, komponentlik nima?

“Komponent (lot. komponens – tashkil etuvchi) bir til nutq birligining tarkibiy qismi: so‘z birikmasining komponentlari. Masalan, belbog‘

so‘zidagi bel va bog‘ shu qo‘shma so‘zning tarkibiy qismi.” [A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T:2002; B:51]

Frazeologik birliklar tarkibiy qismlari, ayniqsa, g‘azallarda turlicha bo‘ladi:

“*Oshkor aylab yuzin ko‘zimni hayron ayladi,*
Yoshurun oldi ko‘ngul, ko‘zimni hayron aylagach.”

Yoki:

“*Oldi ko‘nglimni, sog‘indimkim, manga dildor emish,*
Bilmadim, bu nav’ mendin ul pari bezor emish.”

“Ko‘ngil olmoq” frazeologik birligi frazeologik lug‘atlarda quyidagicha talqin qilinadi: “ko‘nglini oldi – xursand qilish bilan o‘ziga rom etmoq.” [B.Mengliyev va boshqalar. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. T:2007, B:19]

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy g‘azalida “*ko‘ngil olmoq*” frazeologik birligi “*oldi ko‘ngil*” tarzida berilsa, Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azalida ham “*oldi ko‘ngil*” tarzida berilgan.

Binobarin, har ikkala g‘azalda ham aruz vazni talablari asosida hijolar soni va ohangni hisobga olgan holda tasvir beriladi.

Ingliz tilida esa “ko‘ngil olmoq” iborasi “cheer up” birligiga ma’no jihatdan teng hisoblanadi. Quyidagi tarjima misolida buni yanada aniqroq ko‘rishimiz mumkin:

Ey, Navoiy boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

Ingliz tilida:

Hey, Navoi, cheer up and play with your heart,
Why, there was no sadness in the house where the drink came.

Yuqoridagi misolda “xurram et” birikmasi “ko‘ngil olmoq” frazeologik birligiga sinonim bo‘la oladi va tarjimada bu birikma “cheer up” shaklida berilganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni “cheer up” birikmasi ikkala frazeologik birligining ma’nolarini ochib berishda tarjimada qo‘llash mumkin.

Yoki Alisher Navoiyda:

Men jahondir kechtim-u kechmas mening jonimdin el,
Men ilik jondin yudim, chekmas ilik qonimdin el.

"Jondin qo'l yuvmoq" iborasi quyidagicha izohlanadi; "qo'lini yuvib, qo'ltiqqa urmoq" – ixlosi qaytib, ishonmay qo 'ymoq." [O'zbek tili iboralarning izohli lug'ati. B. Mengliyev va boshqalar. T:2007, B:27]

Mazkur frazeologik birlikning sinonimi sifatida "hafsalasi pir bo'ldi" frazeologik birligi bilan ham ifodalash mumkin. Shoir o'z ruhiy holatini "jonimdan to'ydim", ya'ni "qo'limni yuvdim", " ixlosim qaytdim", " ko'nglim qoldi" ma'nolarida beryapti.

Ingliz tilida bu frazeologik birlikni quyidagi ekvivalentlar bilan ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi: to wash one's hands of, break with, abandon. [https//www.thesaurus.com]

Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallarida esa frazeologik birliklarning kengaygan shakli, formasi ko'proq uchraydi:

Bobur bo'lib turur ikki ko'zum yo'lida to'rt,
Kelsa ne bo'ldi qoshima bir-bir mango manga. [Bobur]

"Ko'zim yo'lida to'rt bo'lmoq" frazeologik birligi frazeologik lug'atda quyidagicha ifodalanadi: "*ko'zi to'rt bo'ldi*" – intizor bo'ldi". [O'zbek tili iboralarning izohli lug'ati. B. Mengliyev va boshqalar. T:2007, B:21]

"Ko'zi to'rt bo'lmoq" iborasi komponentlik jihatdan "ikki ko'zim yo'lida to'rt" tarzida beriladi va bunda aruz vazniga xos qofiya va hijolar soni hisobga olinadi.

Ingliz tilida esa bu iborani ifodalash uchun quyidagi frazeologik birligini tavsiya etish mumkin: "waiting with all four eyes".

"Waiting with alla four eyes" iborasi ingliz tilidagi "agog" so'ziga ya'ni "ko'zi to'rt bo'lib kutmoq" iborasiga ma'no jihatdan aynan mos keladi va tarjimada bu iborani kontekst ma'nosiga qarab qo'llash mumkin.

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan frazeologik birliklar bugungi kunda ham o'z ma'nosini yo'qotgan emas. Har ikkala ijodkor qalamida ona tilimiz, milliy tilimizning betakror tarovati to'laqonli ma'nolari bilan tarannum etiladi. Masalan:

Lablaringkim, hayf erur teng tutmoq oni qand ila,

Sindirur yur qand bozorini shakkar xand ila. [Alisher Navoiy]

“O‘zbek tilining izohli lug‘atida “*sinmoq*” leksemasining oltidan ortiq ma’nolari beriladi, shundan uchtasi ko‘chma ma’noli. Unda, jumladan, shunday deyiladi: “4. ko‘chma. konkurensiyada, raqobatda yengilmoq, bankrotlashmoq, xonavayron bo‘moq.”[O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T:2007. III jild. B:513]

Demak, XV asrlarda ham milliy tilimizda bugun ham iste’moldagi “*sinmoq”, “sindirmoq*” frazeologik birliklari xuddi shu sematik ma’nosi bilan qo‘llanilgan.

Ko‘rinadiki, g‘azalda berilgan tasvir bo‘yicha yorning labi shirinlikda qand bozorini kasodga uchratadi.

Bunday badiiy ifodani, ayniqsa, she’riyatda qofiya va radiflar, hijolar sonini hisobga olgan holda ingliz tiliga talqin etish aslida oson ish emas. Ingliz tilida mazkur frazeologik birlikni ifodalash uchun quyidagi so‘z va birliklarni tavsiya etish mumkin: ruin, bankrupt, wipe out, overwhelm. [https//www.thesaurus.com] Aynan qaysi bir ibora yoki so‘zni tarjimada qo‘llash kontekstning ma’nosidan kelib chiqib tanlanadi.

Asqad Muxtor tarjima va tarjimon borasida quyidagilarni aytadi:

“*Tarjimon chizmakash emas, rassom. Undan aniqlik talab qilmang. U ijod qilish kerak*”.

O‘zbekiston Xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ham tarjimon, albatta, o‘zining ruhiyatiga mos asarlarni o‘girishi kerakligini, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov esa Gyotening “Faust” asarini tarjima qilish uchun aynan Germaniyaga borganini, Gyote yurgan yo‘llardan o‘tib, nemis tilini o‘rganganini yaxshi bilamiz. Yoki iste’dodli shoir Shavkat Rahmon Gabriel Garsiya Lorka she’rlarini tarjimasi uchun ispan tilini o‘rganganini eshitganmiz.

Demak, tarjima o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Ma’lum bir asar tarjimasiga bel bog‘lagan ijodkor mahoratdan tashqari ruhiy yaqinlikni ham his etmog‘i lozim.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi tarjimasiga qo‘l urmoqni niyat qilgan har qanday ijodkor bu ikki buyuk ijodkorga ruhan yaqinlikni his qilmog‘i lozim. “*Alisher Navoiy jamiki g‘ozalliklarning buyuk homiysi va o‘z davrining eng ulug‘ shoiridir*,”-deydi chex olimi Yan Ripka [Adabiyot gulshani. 2013, 101-b.] “*Badiiy so‘zga, she’riyatga Bobur o‘zligini, o‘z ruhiy olamini “ochish” vositasi deb qaragan*”, - deydi adabiyot olim Abdurashid Abdug‘afurov [Bobur. Devon. 1994, bet-10]

Shuning uchun milliy-madaniy frazeologik birliklar mumtoz adabiyotimizda shoir faoliyatidan kelib chiqib tuzilish jihatdan inversiyaga uchrashi mumkin.

Bunday lisoniy birliklar har qanday millat madaniyatining, tilining bir in'ikosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – T., 1987.
2. Abadiyat gulshani. – T., 2013
3. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T., 2002.
4. A.Navoiy she'riyatidan. –T., 1977.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III jild. – T., 2007.
6. Bobur. Devon. – T., 1994.
7. https://www.savol- javob.com
8. https//www.thesaurus.com